



THE SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF USING THE FUTURE-SYNERGETIC MODEL IN THE STUDY OF GLOBAL SOCIO-CULTURAL CHANGES

Mansur Juraboevich Nurtulashev

Acting Associate Professor, PhD in Philosophy

University of Business and Science

Tashkent Branch, Department of Social and Humanitarian Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: futurology, synergetics, extrapolation, scenario, global changes, identity, cultural transformation, complex systems, anthroposphere, philosophical methodology.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article analyzes the process of global socio-cultural changes based on a futuro-synergetic approach. The possibilities of understanding social dynamics based on the mutual integration of the theory of complex systems and futurology in modern philosophy are considered. The scientific and philosophical significance of the future-synergetic model, its role in predicting global changes, and the formation of appropriate strategic approaches to them are substantiated.

GLOBAL IJTIMOYIY-MADANIY O'ZGARISHLARNI O'RGANISHDA FUTURO-SINERGETIK MODEL DAN FOYDALANISHNING ILMIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Mansur Juraboevich Nurtulashev

dotsent v.b, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

University of Business and Science

Toshkent filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: futurologiya, sinergetika, ekstrapolyativ, ssenariyviy, global o'zgarishlar, identichlik, madaniy transformatsiya, murakkab tizimlar, antroposfera, falsafiy metodologiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada global ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar jarayoni futuro-sinergetik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Zamonaviy falsafadagi murakkab tizimlar nazariyasi va futurologiyaning o'zaro integratsiyasi asosida ijtimoiy dinamikani anglash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Futuro-sinergetik modelning ilmiy-falsafiy ahamiyati, uning global o'zgarishlarni bashorat qilish,

НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФУТУРО- СИНЕРГЕТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ В ИЗУЧЕНИИ ГЛОБАЛЬНЫХ СОЦИАЛЬНО- КУЛЬТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ

Мансур Журабоевич Нуртулашев

Исполняющий обязанности доцента

доктор философии (PhD) по философским наукам

Университет бизнеса и науки

Ташкентский филиал, кафедра социально-гуманитарных наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: футурология, синергетика, экстраполятивный, сценарный, глобальные изменения, идентичность, культурная трансформация, сложные системы, антропосфера, философская методология.

Аннотация: В данной статье процесс глобальных социокультурных изменений анализируется на основе футуро-синергетического подхода. Рассматриваются возможности понимания социальной динамики на основе взаимной интеграции теории сложных систем и футурологии в современной философии. Обосновывается научно-философское значение футуро-синергетической модели, ее роль в прогнозировании глобальных изменений, формировании соответствующих им стратегических подходов.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy-madaniy jarayonlar murakkablashib, insoniyat tafakkuri yangi tahliliy yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, futuro-sinergetik model global oʻzgarishlarni bashorat qilish, ularning rivojlanish dinamikasini tushuntirish va jamiyat taraqqiyotining istiqbol yoʻnalishlarini aniqlashda muhim ilmiy-falsafiy vosita sifatida eʼtirof etiladi. Mazkur model sinergetika nazariyasining oʻzaro taʼsir, tartibsizlikdan tartibga oʻtish va oʻz-oʻzini tashkil etish tamoyillarini futuristik yondashuv bilan uygʻunlashtiradi. Futuro-sinergetik model yordamida global madaniyat, identiklik, texnologik taraqqiyot va maʼnaviy qadriyatlar oʻrtasidagi dialektik munosabatlar falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi – insoniyatni kutilmagan oʻzgarishlar davrida barqaror rivojlanishga yoʻnaltiruvchi yangi konseptual paradigmani ishlab chiqish zaruratida namoyon boʻladi.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Futuro-sinergetik yondashuvga oid ilmiy manbalar globallashuv jarayonlarining murakkab, oʻzgaruvchan va koʻp omilli mohiyatini tahlil etishga qaratilgan. H.Haken, I.Prigojin, E.Laslo kabi olimlarning asarlarida sinergetika nazariyasi tizimlarning oʻz-oʻzini tashkil etish qonuniyatlari orqali ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishga asos

yaratgan. Futurologlar – E.Toffler, D.Bell, R.Aronlar esa insoniyatning texnologik va madaniy istiqbolini bashorat qilishda ijtimoiy muvozanat va o'zgarish dinamikasini tahlil qilgan. Mahalliy tadqiqotlarda sinergetik yondashuv ijtimoiy muhitni barqarorlashtirishning falsafiy modeli sifatida izohlanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, futuro-sinergetik model global madaniy transformatsiyalarni ilmiy-falsafiy tahlil qilishda integrativ va prognostik metodologik asosni ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. XXI asr insoniyat tarixida jadal ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar asri sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv, raqamli inqilob, bio-texnologik o'zgarishlar, ekologik inqirozlar va aqliy mehnatning ustuvorligi insoniyat hayotida mutlaqo yangi tamoyillarni yuzaga chiqardi. Bunday holatda, ijtimoiy falsafa fanining vazifasi faqat mavjud jarayonlarni tahlil qilish emas, balki kelajakdagi tendensiyalarni anglash va ularga tayyorgarlik ko'rishda ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, futurologiya va sinergetika kabi fanlararo sohalarning integratsiyasi – future – sinergetik model – zamonaviy falsafiy tahlilning muhim metodologik asoslaridan biriga aylanmoqda. Global o'zgarishlar – muayyan hudud bilan cheklanmagan, balki butun insoniyatga ta'sir etuvchi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlardir. Bugungi kundagi texnologik taraqqiyot, sun'iy intellekt, iqlim o'zgarishi, transmilliy migratsiya, geosiyosiy ziddiyatlar fonida dunyoqarashlar, qadriyatlar va madaniy identichliklar qayta shakllanmoqda. Ijtimoiy falsafa bu jarayonlarni inson, jamiyat va tarixni yaxlitlikda ko'rib chiquvchi nazariy tizim sifatida tahlil etadi. Bu tahlillarda evolyusion jarayonlar bilan bir qatorda inqirozli va tasodifiy (nonlayner) o'zgarishlar ham alohida o'rin tutadi.

Sinergetika – murakkab, o'zini o'zi tashkil etuvchi tizimlarni o'rganuvchi fan. Bu fan, jamiyatni muayyan statik tizim emas, balki dinamik va beqaror holdagi tizim sifatida ko'radi. Sinergetik yondashuv jamiyatdagi o'zgarishlarni beqarorlik nuqtalari, bifurkatsiya va attraktorlar orqali tushuntiradi. "Sinergetikaning markaziy muammolaridan biri – nochiziqlilik bo'lib, nochiziqlilik hamma joyda mavjud, hamma yerga singuvchi, ko'p ko'rinishli va cheksiz xilma-xillikni anglatad"[1]. Falsafa bu jarayonlarni tanqidiy, refleksiv va metodologik jihatdan tahlil qiladi. Sinergetikada jamiyatda kichik o'zgarishlar katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkinligi haqidagi nazariya ijtimoiy falsafada faol sub'ektlar rolini, inson erki va ixtiyoriy qarorlarning ahamiyatini yanada teranroq anglashga yordam beradi.

Futurologiya ilmiy va falsafiy usullar asosida insoniyat kelajagi haqidagi ssenariylarni tahlil qiladigan sohadir. Futurologiyada ikki asosiy yondashuv mavjud: ekstrapolyativ (mavjud tendensiyalarni kelajakka tatbiq qilish) va ssenariyviy (turli yo'nalishdagi rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish). Ijtimoiy falsafada futurologiya inson faoliyati va ongi bilan bog'liq o'zgarishlarni tushunishda muhimdir. U inson kelajagiga nisbatan mas'uliyat, qaror qabul qilishning axloqiy mezonlari va rivojlanishning ma'naviy asoslarini o'rganadi. Futuro-sinergetik

modelning asosi bo'lgan «futurologiya tor ma'noda, ijtimoiy jarayonlar hamda ilmiy texnika taraqqiyotiga oid sohalaridagi jarayonlarni izchillikda o'rganish va kelajagini bashorat qilish, shuningdek, statistik va boshqa ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik usullarini ishlab chiqish asosida iqtisodiy, ilmiy-texnika, ijtimoiy va siyosiy sohalarini rivojlantirish va istiqbolini belgilash imkoniyatini beradigan fan sohasidir»[2]. Shu o'rinda K.J.Tulenovning fikricha: «Ilmiy bashorat – bu, o'tmish va bugunning noma'lum hodisalari (narsalari, jarayonlari, qonunlari, dalillari va hok.) shuningdek, mashhur nazariyalar, qonunlar, gipotezalar asosida xulosa sifatida ilgari suriladigan kelajak hodisalariga nisbatan ular haqidagi taxminlardir»[3].

Futuro-sinergetik model — bu futurologiya va sinergetikaning ilmiy-metodologik asoslarini birlashtiruvchi integrativ yondashuv bo'lib, u jamiyatdagi global o'zgarishlarni tahlil qilish, bashorat qilish va boshqarish imkonini yaratadi. Ushbu modelda sinergetikaning murakkab, o'zini o'zi tashkil etuvchi tizimlar to'g'risidagi qarashlari futurologiyaning kelajakni ssenariyviy tahlil qilish imkoniyatlari bilan uyg'unlashadi. Bu yondashuv jamiyat rivojlanishini faqat izchil va chiziqli jarayon emas, balki noaniq, noliney, inqirozli o'zgarishlar jarayoni sifatida ko'radi. "Futuro-sinergetik model inson va jamiyatning kelajakka ta'sirini faol sub'ekt sifatida namoyon etadi, bu esa uning axloqiy, ma'naviy va strategik ahamiyatini kuchaytiradi"[4]. Model asosida kelajak ehtimoliy ssenariylar shaklida tasavvur etiladi va ularda "bifurkatsiya nuqtalari" — rivojlanishning burilish nuqtalari muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, texnologiya va ekologiya kabi sohalar o'rtasida fanlararo muloqotni rag'batlantiradi. Shu tariqa, futuro-sinergetik model global muammolarga tizimli, umuminsoniy va falsafiy yondashuvni ta'minlaydi. Futuro-sinergetik model futurologiya va sinergetikaning metodologik elementlarini birlashtirgan holda ijtimoiy-madaniy jarayonlarni tahlil qilish vositasidir. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Murakkablik va nolineylik: jamiyatdagi o'zgarishlar turli omillar ta'sirida nomutanosib sodir bo'ladi; Veroyatlikli ssenariylar: kelajak yaqqol belgilangan emas, balki ehtimoliy; Faol sub'ektlar ishtiroki: insoniyat o'z kelajagini shakllantirishda faol ishtirok etadi; Evolyusiya va inqiroz: o'zgarishlar izchillik va uzilishlar orqali kechadi.

Futuro-sinergetik model zamonaviy ijtimoiy falsafada quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega:

Jamiyatning kelajagini bashorat qilishda murakkab tizimlar nazariyasi asosida strategik tahlillarni amalga oshirish; Insoniyat oldidagi global xatarlarni erta aniqlash va ularni oldini olishda faol konsepsiyalar ishlab chiqish; Falsafiy refleksiya orqali inson qadriyati va ma'naviyatini markaziy o'ringa qo'ygan rivojlanish modellarini ilgari surish; Ilmiy-tadqiqot jarayonlarini fanlararo yondashuv asosida boyitish, ya'ni falsafa, sotsiologiya, kibernetika, psixologiya va iqtisodiyotni birlashtirish.

Xulosa binchidan, futuro-sinergetik model global ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni o'rganishda tizimli va dinamik yondashuvni taklif etadi. Ushbu model orqali jamiyatdagi tartibsizlik, inqiroz va yangilanish jarayonlari o'z-o'zini tashkil etish qonuniyatlari asosida tushuntiriladi. Natijada, madaniy tizimlar rivojlanishining ichki mexanizmlari, insoniyat sivilizatsiyasining istiqbol yo'nalishlari va ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi omillarni tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchidan, sinergetika nazariyasi va futuristik fikrlash uyg'unligi global o'zgarishlarni bashorat qilishda muhim falsafiy asos yaratadi. Bu model insoniyatning kelajakdagi rivojlanish bosqichlarini nafaqat texnologik, balki ma'naviy-madaniy nuqtai nazardan ham baholashga yordam beradi. Shuningdek, u ijtimoiy tizimlarning o'zgaruvchan muvozanatini saqlashda yangi konseptual yondashuv sifatida qaraladi.

Uchinchidan, futuro-sinergetik model yordamida madaniyatlararo muloqot, global identifikatsiya va texnologik jarayonlarning o'zaro ta'siri falsafiy tahlil qilinadi. Ushbu model insoniyat taraqqiyotining murakkab strukturasi – barqarorlik va beqarorlik, inqiroz va yangilanish dialektikasini anglashga imkon beradi. Natijada, jamiyatning o'zgarish dinamikasiga chuqur, integrativ yondashuv shakllanadi.

To'rtinchidan, futuro-sinergetik yondashuv global madaniyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni inson omili bilan uyg'un holda tushuntiradi. Model ijtimoiy tizimlarni faqat tashqi ta'sirlar emas, balki insonning ijodkorlik, ma'naviyat va axloqiy qarashlari orqali ham o'zgaruvchi murakkab tizim sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan, u antropotsentrik falsafiy paradigmaga yangi mazmun beradi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari futuro-sinergetik modelni XXI asr falsafiy tafakkurining muhim konseptual yo'nalishi sifatida e'tirof etish imkonini beradi. Ushbu yondashuv global madaniy transformatsiyalarni ilmiy tahlil qilish, ularning ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy uyg'unlik bilan bog'liqligini aniqlashda nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan metodologik asosni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bozorov D. Sinergetik paradigma. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 53 b.
2. To'raev B.O., Ergasheva M.X., Raxmonov B.U., Muminova Z.
3. Ochilov J. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo'lishi. (Mas'ul muharrir: prof. Karimov B.R.). Monografiya. – Toshkent: Navro'z, 2017. – 327 b.
4. Tulenova K.J. Предвидение и реальность. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1998. – B.45.